Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatining samaradorligi ularning moliyaviy barqarorligi va investitsion jozibadorligi bilan bevosita bog'liq. Korxonaning moliyaviy salohiyati – bu uning moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish qobiliyati bo'lib, uzoq muddatli rivojlanish, raqobatbardoshlikni saqlab qolish va inqirozlarga bardosh berish imkoniyatini belgilaydi. Shu sababli, moliyaviy salohiyatni baholash va tahlil qilish bugungi kunda korxonalar boshqaruvi uchun eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Korxonaning moliyaviy holatini o'rganish va baholashda turli iqtisodiy hamda statistik usullardan foydalaniladi. Ayniqsa, statistik tahlil usullari korxonaning moliyaviy ko'rsatkichlari dinamikasini aniqlash, moliyaviy xavflarni baholash hamda kelajak prognozlarini shakllantirishda samarali vosita sanaladi. Bu jarayonda likvidlik, rentabellik, qarzдорlik darajasi, pul oqimlari kabi muhim moliyaviy ko'rsatkichlar tahlil qilinadi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitida ko'plab korxonalar o'z moliyaviy salohiyatini yetarlicha baholay olmayapti. Bu holat kredit olish, investitsiyalarni jalb qilish hamda strategik rejalashtirish jarayonlarida muammolar keltirib chiqarmoqda. Moliyaviy ko'rsatkichlarning statistik tahlili orqali esa korxonalarning moliyaviy barqarorligini oshirish, iqtisodiy samaradorligini ta'minlash va uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyati mavjud.

Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqotda korxonalar moliyaviy salohiyatini aniqlashda statistik tahlil usullaridan foydalanish, asosiy moliyaviy ko'rsatkichlarning dinamikasini o'rganish hamda ularning o'zaro bog'liqligini aniqlash ko'zda tutilgan. Tadqiqot natijalari korxonalar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Korxona moliyaviy salohiyatini baholash yo'nalishida hozirgi kungacha ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ushbu izlanishlar moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarga asoslangan yondashuvlar, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini bevosita baholovchi metodologiyalar hamda hududlar moliyaviy holatini baholashga oid kompleks yondashuvlarga bo'linadi.



ADABIYOTLAR SHARHI

Korxona moliyaviy salohiyatini baholash bo'yicha ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, bu borada turli yondashuvlar va metodologiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu tadqiqotlarning aksariyati moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, korxonaning investitsiyaviy jozibadorligini aniqlash, kapital tuzilmasi va rentabellik ko'rsatkichlarini tahlil qilishga qaratilgan.

Mavzuga doir yondashuvlar orasida iqtisodiy va statistik usullar muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, moliyaviy salohiyat tushunchasini aniqlashda iqtisodchi olim Strumilin S.G. (1957) o'zining "Problemy ekonomiki truda" nomli asarida korxonaning iqtisodiy imkoniyatlarini baholashda statistik va iqtisodiy usullarning o'rni va ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tadi. Olim moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishda asosiy ko'rsatkichlar sifatida sof foyda, rentabellik darajasi va kapital aylanish tezligini belgilaydi.¹

Yana bir iqtisodchi olim Misko K.M. moliyaviy resurslarni boshqarish va ularning samaradorligini oshirish yo'llarini o'rganib, statistik tahlil asosida investitsiya salohiyatini baholashning metodologik asoslarini ishlab chiqqan.² va ularning muhim ahamiyat kasb etishini keltirib o'tgan.

Boshqa bir xorijlik olimlar esa moliyaviy ko'rsatkichlarni statistik baholash metodlari haqida o'z asarlarida iqtisodiy fikrlarini bildirishgan. Iqtisodchi olim Romanov A.P. korxonaning moliyaviy salohiyatini baholash uchun statistik usullarni qo'llash muhimligini ta'kidlab, korxona moliyaviy barqarorligini tahlil qilishda regressiya tahlili, dispersion tahlil va klasterlash usullari samaradorligini ko'rsatib bergan.³

Arestova N.V. o'zining maqolasida iqtisodiy salohiyatni baholashning zamonaviy usullarini tahlil qilgan. U korxona moliyaviy ahvolini baholash uchun balans ko'rsatkichlari, likvidlik va moliyaviy risklarni hisoblash bo'yicha tavsiyalarni taklif etgan.⁴

Yuqoridagi manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, korxona moliyaviy salohiyatini baholash uchun turli iqtisodiy va statistik usullar qo'llaniladi. Moliyaviy barqarorlik, investitsiyaviy jozibadorlik va rentabellik kabi omillar korxona rivojlanishining muhim indikatorlari hisoblanadi. Statistik modellashtirish, klasterlash va ekonometrik prognozlash metodlari esa moliyaviy salohiyatni chuqur tahlil qilish va kelajak tendensiyalarini aniqlashda samarali vositalar bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, korxona moliyaviy salohiyatini baholashda kompleks yondashuv talab etiladi va bu jarayonda statistik tahlil usullarining qo'llanilishi muhim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Korxona moliyaviy salohiyatini baholash statistik tahlil asosida amalga oshiriladi. Ushbu tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi: ma'lumotlarni to'plash, statistik tahlil usullarini qo'llash, olingan natijalarni tahlil qilish va xulosa chiqarish. Ushbu bosqichlar tizimli va izchil yondashuv asosida amalga oshiriladi.

Tadqiqotda korxonalarning moliyaviy ko'rsatkichlari asosida ularning moliyaviy salohiyatini aniqlashga qaratilgan statistik tahlil metodlari qo'llanilgan bo'lib, bu tahlil natijalari asosida korxonalarning moliyaviy barqarorlik darajasini aniqlash, mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini baholash hamda strategik qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan asosiy ma'lumotlar shakllantiriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korxona moliyaviy salohiyatini baholashga oid yondashuvlarni ko'rib chiqish bu sohadagi mavjud ilmiy va amaliy tajribalarni umumlashtirish imkonini beradi. Ushbu yondashuvlar asosida turli xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini statistik tahlil qilish mumkin.

Amaliyotda keng qo'llaniladigan yondashuvlarni quyidagi uchta asosiy guruhga ajratish maqsadga muvofiq:

Ekspert baholash usullari – xo'jalik yurituvchi subyektlar salohiyatining integral tavsiflaridan foydalanishga asoslanadi. Ushbu yondashuvda tarmoq va hududlar kesimida reyting baholash amaliyoti qo'llanadi.

Iqtisodiy-matematik usullar – bu usullar matematik modellar, regressiya tahlili va indekslash orqali moliyaviy ko'rsatkichlarni aniqlash va taqqoslashga qaratilgan.

Omillar tahlili (faktorial tahlil) – korxonaning moliyaviy holatiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning o'zaro bog'liqligini tahlil qilish orqali natijaviy xulosalar chiqariladi.

Birinchi yondashuv guruhi – ya'ni ekspert baholashga asoslangan metod – korxona salohiyatini tavsiflovchi

1 Strumilin S.G., "Problemy ekonomiki truda". Ekonomika. Moskva., 1957y. 130 b.


2 Misko K.M. "Resursny potentsial regiona". Nauka. Moskva. 1991y. 121 b.

3 Romanov A.P., Serebrennikov V.M., Kirillina O.V. "Upravlenie ekonomicheskimi potentsialom". FGBOU VPO "Tambovskiy gosudarstvennyy tekhnicheskiiy universitet" (TG TU). Tambov, Rossiya. 2012. 88 b.

4 Arestova N.V. Approach to economic potential. Science and Economics. No. 1(5). 2011. 8 b.



integral ko'rsatkichlarni aniqlashga asoslanadi. Xususan, hududlar va tarmoqlar kesimida xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini baholash quyidagi **beshta sintetik (integral) ko'rsatkich** asosida amalga oshiriladi (1-rasm).



1-rasm. Korxonalarni moliyaviy salohiyatini baholashni sintetik (integral) ko'rsatkichlari.

1-rasmda, mintaqaning umumiy iqtisodiy-moliyaviy rivojlanishi, hudud infratuzilmasi rivojlanishi, hudud demografik xususiyatlari, bozor munosabatlari va savdo infratuzilmasi rivojlanishi, jinoiy, ekologik va boshqa xavf-xatarlar darajasi buyicha integral ko'rsatkichlar berilgan bo'lib, har bir sintetik ko'rsatkich unga kiritilgan analitik ko'rsatkichlar to'plami bo'yicha baholanadi. Har bir sintetik ko'rsatkichning miqdoriy bahosi uning tarkibiga kiritilgan analitik ko'rsatkichlar rang qiymatlarini yig'ish yo'li bilan olinadi. Hududning umumiy iqtisodiy-moliyaviy rivojlanish darajasini baholashda potensial ehtiyoj, o'z manbalaridan resurslarni shakllantirish imkoniyatlari, mintaqaviy bozorning umumiy hajmi o'rganiladi.

Ko'rib chiqilgan beshta guruh sintetik ko'rsatkichlarning miqdoriy bahosi asosida (yuqoridagi sanab o'tilgan analitik ko'rsatkichlar qiymatlari yig'indisi bo'yicha olingan) hududlar moliyaviy salohiyatini baholashning integral ko'rsatkichi hisoblanadi.

2) Ekspert yo'li bilan har bir sintetik ko'rsatkichning hududlar moliyaviy holatini umumiy baholashdagi ahamiyati aniqlanadi:

- mintaqa umumiy iqtisodiy rivojlanish darajasi - 35%;
- investitsiya infratuzilmasi rivojlanish darajasi - 15%;
- mintaqa demografik xususiyatlari - 15%;
- bozor munosabatlari va tijorat infratuzilmasi rivojlanish darajasi - 25%;
- jinoiy, ekologik va boshqa xavf darajasi - 10%.

Hududlar moliyaviy salohiyatini baholash uchun integral ko'rsatkichni hisoblash har bir sintetik ko'rsatkich rangini uning ahamiyatligiga ko'paytirib yig'ish asosida amalga oshiriladi. Hisoblangan integral ko'rsatkich ma'lumotlariga asoslanib, mamlakat umumiy tarkibida iqtisodiy-moliyaviy rivojlanish nuqtai nazaridan har qanday mintaqaning o'ziga xos o'rnini aniqlash mumkin.

Ma'lumki, statistik hamda ekonometrik tahlil usullari mamlakat va uning mintaqalari iqtisodiyotini baholashda keng qo'llaniladi. Lekin, ushbu tahlilning uslubiy va tashkiliy imkoniyatlaridan mamlakat, ayniqsa mintaqalar iqtisodiyotini rivojlanishini o'rganishda samarali foydalanilmayapti. Bu holat hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga xalal bermoqda. Bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan yangilash, fan sig'imli tarmoqlarni rivojlantirish hisobidan xalqaro bozorda raqobatdoshlikka erishish uchun innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishdir.

Mamlakat iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir loyihalarni amalga oshirish maqsadida bajarilayotgan ishlarga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu yondashuvlar kamchiliklari hududlar moliyaviy salohiyatini baholashda omillar guruhining ta'siri teng



emasligi, moliyaviy salohiyatini baholashda omillar to'plamini ob'ektiv tanlay olmaslik va natijada, hududlarni moliyaviy baholash bo'yicha noto'g'ri taqqoslashning yuzaga kelishi mumkinligidir.

Yuqorida aytib o'tilgan masalalarni iqtisodiy-statistik tahlil qilish ularning nazariyasiga emas, balki statistik amaliyotiga ham tegishlidir. Ayniqsa, mamlakatning mintaqalardagi moliyaviy holatini, shu jumladan ularning rivojlanish istiqbollari o'rganishni taqozo etadi.

So'nggi o'n yillikda xorijiy kapitalga bo'lgan talab uning taklifidan ancha oshib bormoqda. Bu holat, avvalo, ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda o'z-o'ziga tayanish strategiyasidan iqtisodiy shaffoflik va jahon iqtisodiyotiga faol integratsiyalashuv yo'lida yuz berayotgan keskin burilishlar bilan izohlanadi. Ayni paytda ushbu davlatlarning ko'pi ichki jamg'armalarga yetarlicha ega emas, bu esa ularni xorijiy investitsiyalarni faol jalb etishga undamoqda.

Jahon bankining prognozlariga ko'ra, kelajakda rivojlanayotgan mamlakatlar o'z iqtisodiyotini mustahkamlash uchun xorijiy sarmoyalarga tobora ko'proq ehtiyoj sezadilar. Xususan, sanoat, infratuzilma va innovatsiyalarni rivojlantirish uchun yetarli moliyaviy resurslar mavjud emasligi sababli, bu ehtiyoj yana-da dolzarb tus olmoqda.

Ayni vaqtda jahon iqtisodiyotida ayrim mamlakatlarning roli sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlarning global sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi qisqarib, rivojlanayotgan mamlakatlar ulushi ortib bormoqda. Ayniqsa, sanoat ishlab chiqarishining yuqori sur'atlari Janubiy Koreya, Singapur, Tayvan va Gonkong kabi yangi industrial mamlakatlarda kuzatilmoqda. Biroq rivojlangan mamlakatlar ichida AQSH yetakchilik mavqeini saqlab qolmoqda. Shunga qaramay, Yaponiyaning iqtisodiy jihatdan jadal rivojlanishi AQSHning hukmron mavqeini nisbatan shubha ostiga qo'yimoqda.

Yuqoridagi faktlar zamonaviy dunyoda kapital harakatining qamrov va mas'uliyat darajasi yuqori ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, eksport qilinadigan kapital asosan sanoati rivojlangan mamlakatlarga yo'naltirilmoqda. Hozirda yillik 200 milliard AQSH dollaridan ortiq miqdordagi global to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning taxminan 70 foizi Yevropa Ittifoqi davlatlari, Yaponiya va AQSH iqtisodiyotiga to'g'ri kelmoqda. Qolgan qismi esa asosan rivojlanayotgan mamlakatlarga yo'naltirilmoqda.

Shu munosabat bilan, kelgusida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimida rivojlangan mamlakatlarning ulushi bosqichma-bosqich kamayib boradi, rivojlanayotgan va o'tish davridagi mamlakatlar ulushi esa ortib boradi, deb taxmin qilish mumkin. Prognoz davrida kapital eksport qiluvchi asosiy mamlakatlar, avvalgidek, jahon iqtisodiyotining sanoat markazida joylashgan, kapitali ortiqcha mamlakatlar bo'lib qoladi.

Shu bilan birga, Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasidagi yangi industrial mamlakatlar, Yaqin Sharqning ayrim davlatlari hamda ehtimol, Lotin Amerikasi mamlakatlarining ham jahon sarmoya bozoridagi roli sezilarli darajada ortadi.

Jahon iqtisodiy xo'jaligiga integratsiyalashish va ochiq iqtisodiyotga o'tish yo'lidan borayotgan O'zbekiston uchun kapital migratsiya jarayonlarida ham importyor, ham kapital eksportchisi sifatida ishtirok etish strategik zarurdir. Busiz mamlakat globallashtayotgan jahon iqtisodiyotida o'zining munosib o'rnini egallay olmaydi.

Ammo bugungi kunda O'zbekistonning bu jarayonlardagi ishtiroki juda kamtarona. Bugungi kunda O'zbekiston Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki kabi yirik xalqaro moliya institutlari va tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yg'an⁵.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida oxirgi yillarda olib borilgan tub islohotlarga qaramay, YalM va mos ravishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda xududlar ulushi keskin farqlanmoqda. Respublika bo'yicha 2022 yilda YalM hajmi 888341,7 mlrd.so'mni tashkil etib, uning shakllanishida Toshkent shahri 16,6%, Toshkent viloyati 10,5% va Navoiy viloyati 7,5% bilan eng yuqori o'rinlarni egalladi. YalMga eng kam ulushni Toshkent shahriga nisbatan 8,3 barobardan ko'proq farq bilan Sirdaryo viloyati(2,0 %) egalladi⁶.

Ma'lumki, O'zbekiston ko'plab foydali qazilmalar zaxirasi bo'yicha dunyoning yuqori o'ringida turadigan 20 ta davlati qatoriga kiradi. Jumladan, mamlakat oltin resurs bazasi bo'yicha dunyoda – 2-o'rinni, mis bo'yicha – 7, volfram bo'yicha – 8, kumush bo'yicha – 9, uran bo'yicha 12-o'rinni, tabiiy gaz ishlab chiqarish sohasida esa 16-o'rinni egallaydi. O'zbekiston Respublikasiga xorijiy investitsiyalar to'g'risida gapirilganda, birgina 2019 yilda 4,2 milliard AQSh dollaridan ortiq mablag'ga ega 112 ta muhim investitsiya loyihalari amalga oshirildi⁷.

Hududlarning kompleks va mutanosib rivojlanishini ta'minlash, hududiy tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish va mehnat quvvati, ishlab chiqarish quvvatlarini optimal joylashtirish kabi shuningdek, insonlar turmush sharoiti yaxshilandi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun mintaqaning geografik joylashuvi,

5 Xatamov N.O. Hududlarga xorijiy investitsiyalar jalb qilishda investitsion muhit jozibadorligi. // "Xorazm ma'mun akademiyasi" axborot-nomasi. Xiva, 2023-yil 9/2-son.66-72 betlar.

6 Xatamov N.O. O'zbekiston Respublikasi mintaqalarida xorijiy investitsiyalardan foydalanish samaradorligi tahlili. // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, Toshkent, 2023-yil avgust 4-son. 216-221 betlar. www.e-tt.uz .

7 O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. "O'zbekiston iqtisodiy ko'rsatkichlari" // Rasmiy statistik hisobotlar, 2023. www.stat.uz



iqlimi, tarixi, yer resurslari hisobga olinadi va kichik hamda oilaviy tadbirkorlik sub'ektlari rivojlantirishiga asos bo'lishi kerak. Yuqorida ta'kidlangan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi 4931-sonli farmoni asosida quyidagi masalalar asosiy o'rin egallaydi.

- ishlab chiqarishni ta'minlash uchun xalqaro talab va raqobatbardosh mahsulotlar bozorlari uchun zamonaviy ishlab chiqarish birliklarini tashkil etish;

- mineral va qishloq xo'jalik resurslarini qayta ishlash zavodlarini barpo qilish;

- yangi korxonalar yaratilish uchun mahalliy va xorijiy investitsiyalar jalb etishga qulay investitsion muhit tashkil etish.

Yuqoridagi omillarga asoslangan holda, hudud iqtisodiyoti ishlab chiqarish va moliyaviy salohiyatining investitsion qiymatli ko'rsatkichlarining taxminiy baholash algoritmlarini ko'rsatib o'tamiz.⁸

1) Aholi jon boshiga sanoat ishlab chiqarish hajmi (ASI):

$$ASI = \frac{SH}{A}, \quad (1)$$

bu yerda: SH- sanoat ishlab chiqarish hajmi, so'mda; A- aholi umumiy soni.

2) 1-formuladan foydalanib, sanoat ishlab chiqarish hajmi o'zgarish sur'ati, taqqoslama narxlarda. Quyidagicha belgilab olamiz:

$$\Delta SH_t = \frac{SH_t - SH_{t-1}}{SH_{t-1}} * 100 \quad (2)$$

3) Aholi jon boshiga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmi(AQXI):

$$AQXI = \frac{QXH}{A} \quad (3)$$

bu yerda: QXH- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmi, so'mda

4) (3) formuladan Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmi o'zgarish sur'ati, taqqoslama narxlarda.

$$\Delta QXH_t = \frac{QXH_t - QXH_{t-1}}{QXH_{t-1}} * 100 \quad (4)$$

5) Aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi:

$$QUR = \frac{QUR}{A}, \quad (5)$$

bu yerda: QUR- qurilish ishlari hajmi, so'mda.

6) Qurilish ishlari hajmi o'zgarish sur'ati

$$\Delta QUR_t = \frac{QUR_t - QUR_{t-1}}{QUR_{t-1}} * 100 \quad (6)$$

7) Kichik korxonalarda band bo'lganlarning umumiy iqtisodiy faol aholi tarkibidagi ulushi:

$$KBD = \frac{KKB}{IFA}, \quad (7)$$

bu yerda: KBD- kichik biznes rivojlanish darajasi, KKB-kichik korxonalarda band bo'lgan aholi soni, IFA-umumiy iqtisodiy faol aholi soni.

8) Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi korxona va tashkilotlarning umumiy sonida yilni zarar bilan yakunlagan korxona va tashkilotlar ulushi.

$$ZKU = \frac{ZKS}{TKS} \quad (8)$$

bu yerda: ZKS- moliyaviy yilni zarar bilan yakunlagan korxona va tashkilotlar soni, TKS-tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi korxona va tashkilotlar umumiy soni.

9) Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan barcha korxona-larning amortizatsiya chegirmalari va rentabelli korxonalar foydasining naqd pul bilan ta'minlangan summasi:

$$AKII = \frac{KACH + RKF}{A} \quad (9)$$

bu yerda: KACH- naqd pul bilan ta'minlangan korxonalarning amortizatsiya chegirmalari summasi, RKF-naqd pul bilan ta'minlangan rentabelli korxonalar foydasi summasi.

8 Gujarati D. "Basic Econometrics". – McGraw-Hill Education, 2020. – 700 p.



10) Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan chakana tovar aylanmasi hajmi (chakana narxlarida)

$$CHSA = \frac{CHSAH}{A} \quad (10)$$

bu yerda: CHSAH-chakana tovar aylanmasi hajmi

11) Aholi jon boshiga boshiga to'g'ri keladigan eksport hajmi (EKS),dollarida

$$EKS = \frac{EKSM}{A} \quad (11)$$

bu yerda: EKSM-hududdan eksport qilinayotgan mahsulotlar hajmi,dollarida.

Mintaqa moliyaviy salohiyatiga ta'sir etuvchi miqdoriy omillarga: tarmoqlar, jumladan sanoat, qishloq xo'jalik, qurilish, transport kabi tarmoqlar rivojlanishi; mehnat resurslari o'zgarishi; aholi turmush darajasi; chakana savdo holati kabilarni kiritishimiz mumkin.

Mintaqaviy investitsiya siyosati yordamida maqsadli ta'sir qilish obyektiga aylanishi mumkin bo'lgan investitsiya muhiti asosiy tarkibiy qismlari: aholi ta'lim darajasi; iqtisodiyotni ixtisoslashuvi va tuzilishi; hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi; ichki mintaqaviy bozor sig'imi; mintaqaviy infratuzilmani rivojlantirish kabi omillardir.

Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarning 30,5 foizi savdo, 27,5 foizi sanoat, 8 foizi qurilish, 4,8 foizi qishloq xo'jaligi, 4,1 foizi yashab turish va ovqatlanish muassasalari, 2,9 foizi saqlash va tashish, 4,8 foizi aloqa va axborot yo'nalishlarida, 17,4 foizi boshqa sohalarda faoliyat yuritmoqda. Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarda iqtisodiyotda rasman band aholining 6 foizi faoliyat yuritadi, biroq ushbu korxonalarning ishlab chiqarishdagi ulushi 15 foizni, asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi esa 24 foizni tashkil etadi. Bunday korxonalar respublikadagi jami korxonalarning 2,5 foizini tashkil etsada, 2022 yilda mamlakat tashqi savdo aylanmasining 19,8 foizi, eksport va importning mos ravishda 19,7 va 25 foizi ularning hissasiga to'g'ri kelgan.

Tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, chet el kapitali ishtirokidagi korxonalar faoliyat ko'rsatuvchi xo'jalik sub'ektlarining eng samarador va eng faol qatlami hisoblanadi. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga ko'ra, kelgusi 5 yilda iqtisodiyotga 70 milliard dollar miqdorida xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda 2026 yilga borib eksport hajmini 30 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan. Ushbu maqsadlarga erishishda chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar sonini oshirish, shuningdek, ularning eksport faoliyatini rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega.

Statistik ma'lumotlarga asoslangan holda ishonchli xulosaga ega bo'lishi uchun avvalambor, tavsiflovchi statistika usulidan foydalanish yaxshi natija beradi. Chunki, tavsiflovchi statistika (Descriptive Statistics) tahlilini amalga oshirish va bu orqali tasodifan ro'y berishi mumkin bo'lgan guruhlar orasidagi farqning ishonchli ekanligi ehtimolini baholashdan xulosa chiqarish imkonini beradi.⁹

XULOSA VA TAKLIFLAR

Korxonaning moliyaviy salohiyatini statistik tahlil qilish – moliyaviy holatni chuqur tahlil etish, asosli va muhim moliyaviy qarorlar qabul qilish hamda korxonaning barqaror rivojlanishiga erishish uchun muhim poydevor yaratadi. Bunday yondashuv korxonaga risklarni kamaytirish, samaradorlikni oshirish hamda investitsion jozibadorlikni kuchaytirish imkonini beradi.

Statistik tahlil, ayniqsa tavsiflovchi statistika vositasida, mavjud ma'lumotlar asosida umumiy holat haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Ushbu usul orqali ko'plab sonli ko'rsatkichlar soddalashtirilib, ularni tushunarli va amaliy qarorlar qabul qilishga yaroqli shaklga keltirish mumkin. Har bir tavsiflovchi statistik tahlil esa katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilib, ularni mazmunli va qisqa xulosalarga aylantirishga xizmat qiladi.

Natijada, statistik tahlil usullaridan foydalanish korxonalarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, boshqaruvni samarali tashkil etish hamda uzoq muddatli strategik rejalashtirishni ilmiy asosda amalga oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Strumilin, S.G. Problemy ekonomiki truda. Moskva: Ekonomika, 1957. – 130 b.
2. Misko, K.M. Resursny potentsial regiona. Moskva: Nauka, 1991. – 121 b.
3. Romanov, A.P., Serebrennikov, V.M., Kirillina, O.V. Upravlenie ekonomicheskimi potentsialom. Tambov: TGTU, 2012. – 88 b.
4. Arestova, N.V. "Approach to economic potential." Science and Economics, №1(5), 2011. – 8 b.
5. Xatamov, N.O. "Hududlarga xorijiy investitsiyalar jalb qilishda investitsion muhit jozibadorligi." Xorazm Ma'mun Akademiyasi Axborotnomasi, 2023-yil, 9/2-son. – 66–72-betlar.

9 Nazarov K. I. "Statistik tahlil usullari va ularning iqtisodiyotda qo'llanilishi". – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 312 b.



6. Xatamov, N.O. "O'zbekiston Respublikasi mintaqalarida xorijiy investitsiyalardan foydalanish samaradorligi tahlili." Iqtisodiy Taraqqiyot va Tahlil, Toshkent, 2023-yil, avgust, 4-son. – 216–221-betlar. URL: www.e-tt.uz
7. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. O'zbekiston iqtisodiy ko'rsatkichlari. Rasmiy statistik hisobotlar, 2023. URL: www.stat.uz
8. Gujarati, D. Basic Econometrics. New York: McGraw-Hill Education, 2020. – 700 p.
9. Nazarov, K.I. Statistik tahlil usullari va ularning iqtisodiyotda qo'llanilishi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 312 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. aprel. № 3. navbatdan tashqari son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>